XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 24-mart VII-16-31-8-108-K/26 Oltinsoy tumani

Oltinsoy tumanidagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qaroriga asosan Kadastr agentligi huzuridagi Respublika ekspertiza komissiyasining 2026-yil 17-fevraldagi 05-19-2865-sonli ekspertiza xulosasi hamda Respublika Ekspertiza komissiyasining 2026-yil 17-fevraldagi yig‘ilish bayoniga ko‘ra hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi raisi o‘rinbosari T.Chorshanbiyevning tumandagi ayrim Geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2026-yil 3-martdagi 06-06/53-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish Milliy qo‘mitasi Kadastr agentligi huzuridagi Respublika ekspertiza komissiyasining 2026-yil 17-fevraldagi 05-19-2865-sonli ekspertiza xulosasi hamda Respublika Ekspertiza komissiyasining 2026-yil 17-fevraldagi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

3.Tumandagi “Gulchechak” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini o‘zgartirish bo‘yicha mahalla faollari tomonidan berilgan taklifga ko‘ra Respublika ekspertiza komissiyasining 2026-yil 17-fevraldagi 05-19-2865-sonli ekspertiza xulosasiga asosan tumandagi “Gulchechak” mahalla fuqarolar yig'ini nomi **“Alpomish”** mahalla fuqarolar yig‘ini nomiga o‘zgartirilsin hamda 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida Respublika Kadastr agentligining davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

5.Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha komissiyasi (U.Xudoyberdiyev)zimmasiga yuklatilsin.

6.Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **TURDIYEV AKRAM ABDIMURATOVICH**

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2026-yil 24-martdagi
VII-16-31-8-108-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tumandagi “Gulchechak” mahalla fuqarolar yig'ini nomi “Alpomish” mahalla fuqarolar yig'ini nomiga o'zgartirish
JADVALI

JADVALI T/r	**Geografik obyektning turi**	**Geografik obyektning joylashuvi**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif**	**Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaning ekspert komissiyasi tomonidan tahlili**	**Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi**
1	Mahalla fuqarolar yig‘ini	Gulchechak MFY	Gulchechak	Alpomish	Xaritada geografik obyektning turi to'g'ri ko'rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.